

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST ЎТМИШГА НАЗАР

### ZAMONAVIY URUHLARDA NOMUNTAZAM HARBIY BIRLASHMALARNING ROLI

**Suyunov Azimjon Alisher o'g'li,**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining Xalqaro hamkorlik bo'limi uslubchisi

**For citation:** Azimjon A. Suyunov. The role of irregular armed forces in modern warfare. Journal look to the past. 2019, vol. 1, issue 11, pp. 120-131.



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-11-13>

*Келиб тушган сана 5 август, 2019*

*Эълон қилинган сана 5 октябрь, 2019*

#### ANNOTATSIYA

Maqolada xalqaro munosabatlarning yangi nodavlat aktorlari sifatida nomuntazam va xususiy harbiy birlashmalarning roli va o'zni muammosi muhokama etilgan. Ortib borayotgan tashqi tahdidlar muhitida xususiy harbiy kompaniyalarning davlatlarning milliy manfaatlarini amalga oshirishning vositasi sifatida qo'llanilishi ehtimoli masalasi ko'tarilgan. Xalqaro ommaviy huquqning mavzuga doir hujjatlarini tahlil etish orqali harbiy outsorsingni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning mavjud holati tahlil etildi.

Kalit so'zlar: yollanma jinoyatchilik, xususiy harbiy kompaniyalar, milliy manfaatlar, gibrid urush, harbiy nizolar, "Montryo" hujjati, Jeneva konvensiyalari

### РОЛЬ НЕРЕГУЛЯРНЫХ ВОЕННЫХ ФОРМИРОВАНИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ВОЙНАХ

**Суюнов Азимжон Алишер угли,**

Методист отдела международного сотрудничества Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

## **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается проблема места и роли нерегулярных военных формирований как нового негосударственного актора международных отношений. Поднимается вопрос о возможности использования нерегулярных военных формирований в качестве орудия национальных интересов государств в условиях нарастающих внешних угроз. При помощи изучения соответствующих документов общего международного права касающихся изучаемой темы было проанализировано текущее состояние нормативно-правовой базы регулирующий военный аутсорсинг.

**Ключевые слова:** Наёмные войска, частные военные компании, национальные интересы, гибридная война, военные конфликты, документ “Монтрё”, Женевские конвенции

---

## **THE ROLE OF IRREGULAR ARMED FORCES IN MODERN WARFARE**

**Suyunov Azimjon Alisher ogli,**

Methodist of the Department for international cooperation  
in Almalyk branch of the TSTU named after I.A. Karimov

## **ANNOTATION**

The article discusses the problem of the place and role of irregular military as a new non-state actor of international relations. The question arises as to the possibility of using irregular military forces as provider of the national interests of the states in the face of growing external threats. With the help of examination of relevant documents regarding studying theme, there has been analyzed current state of the law base regulating military outsourcing.

**Key words:** mercenary soldier, private military companies, national interests, hybrid warfare, military conflicts, “Montreux” document, Geneva conventions.

---

Hozirgi davrda xalqaro xavfsizlikka bo'lgan muhim chaqiriqlardan biri, bu davlatning qurolli kuchni qo'llashga bo'lgan monopoliyani yo'qotishi jarayonining tobora kuchayib borayotganligidir. Bundan bir necha o'n yillar ilgari aksar davlatlar o'zining harbiy-kuchga asoslangan siyosatini olib borishda o'z qurolli kuchlariga tayanar edilar. Ammo XXI asrning urush va harbiy nizolarida qurolli nizolar yuz berayotgan nuqtalarda davlatlar tobora ko'proq nomuntazam xususiy harbiy birlashmalar xizmatidan foydalanishlari bois, ularda borgan sari nohukumat tuzilmalar ko'proq rol o'ynashni boshladi.

Mazkur omil hamda xalqaro gumanitar huquqda nomuntazam harbiy birlashmalarga nisbatan ko'plab chigalliklar mavjudligi sababli, mazkur maqolada yollanma jinoyatchilik, xususiy harbiy kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi bir qator hujjatlarni tahlil etish orqali ularning maqomi, hamda davlatlar qurolli kuchlaridan ustun jihatlariga aniqlik kiritishga harakat qilindi.

1977-yildagi diplomatik konferensiya bo'lib o'tib, unda 1949-yildagi Jeneva konvensiyalarining "Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasiga I va II qo'shimcha protokollar qabul qilindi. Ushbu konferensiyada ilk bor "qurolli kuchlar" tushunchasiga aniqlik kiritilgan edi. I Qo'shimcha protokol (43 modda) ushbu tushunchani quyidagilarning mavjudligi bilan bog'laydi:

a) O'zining qo'l ostidagilarining xatti-harakatlariga ma'sul shaxs tomonidan guruh va bo'linmalarda qo'mondonlik amalga oshiriluvchi harbiy tashkilotlar;

b) Xalqaro gumanitar huquq normalariga rioya qilishni ta'minlovchi ichki intizomiy tizimlar [6];

Qurolli kuchlarning ushbu ta'rifi harbiy tashkilotni urush huquqi subyektiga kiritishga imkon beruvchi ikki belgisiga ega, va qurolli nizoda urushuvchi davlatning vakili bo'lib uning qo'mondonligiga bo'ysunuvchi barcha shaxslarni qamrab oladi. Shu orada muntazam va nomuntazam qurolli kuchlar o'rtasida farqlarning mavjud emasligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zining qo'l ostidagilarning xatti-harakatlari uchun ma'sul bo'lgan va ular ustidan qo'mondonlik qiluvchi nizo tomonining barcha qurolli kuchlari, guruhlari va bo'limlari, o'sha tomonning qurolli kuchlari sifatida e'tirof etiladi.

Ta'kidlash joizki, 1907-yilgi Haaga konvensiyasining 1-bo'lim 1-moddasi va tegishli ravishda 1949-yilgi I va II Jeneva konvensiyalarining 13-modda 2-bandi va 4-modda 13-bandiga muvofiq nomuntazam qurolli kuchlar mos kelishi lozim bo'lgan to'rt shartlaridan 2 tasidir, ya'ni:

a) O'zining bo'ysunuvchilariga ma'sul bo'lgan shaxsga ega bo'lish;

b) Muayyan va uzoqdan aniq ko'rinadigan farqlovchi belgiga ega bo'lish;

c) Oshkora suratda qurol taqib yurishlari;

d) O'zining harakatlarida urush odatlari va qonunlariga rioya qilish;

Yangi tahrirda muayyan va uzoqdan aniq ko'rinadigan farqlovchi belgiga ega bo'lish va o'z harakatlarida urush odatlari va qonunlariga rioya qilish haqida hech narsa deyilmagan. Shu bilan birga, farqlovchi belgiga ega bo'lish mavjud, ammo u 2-bo'lim 43-moddada emas, 44-moddada tilga olingan [4].

Xalqaro gumanitar huquqda qurolli nizoning qonuniy ishtirokchilarini kombatant (jang qiluvchilar) va nokombatant (jang qilmayotganlar)ga ajratadi. Qurolli kuchlarni bunday tarzda bo'lish I Qo'shimcha protokolda ham tasdiqlangan bo'lib, ular o'rtasidagi ajratishni harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etish huquqi

bilan asoslaydi. Xalqaro gumanitar huquqda kombatant deb kurashuvchi tomonning qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi va harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etish huquqiga ega shaxslarga aytiladi. Qurolli kuchlarning soni, tashkiliy tuzilmasi, komplektlash tartibi davlat qonunchiligi tomonidan belgilanadi. Har bir urushuvchi davlat dushmaniga xabar bergan holda o'zining qurolli kuchlariga tartib-intizom muhofazasini ta'minlovchi yarim harbiy yoki qurollangan tashkilotni qo'shish huquqiga ega (I protokol, 43-modda 2-bandi). Harbiy intendantlar, harbiy muxbirlar, harbiy huquqshunoslar qo'liga qurol olib urushda qatnashish huquqiga ega, negaki ular o'z ta'rifiga ko'ra kombatantlardir. Shuningdek, ko'ngillilar qurolli nizoning qonuniy ishtirokchilari sanaladi. Bu haqda 1907-yilgi quruqlikdagi urush holatida betaraf davlatlar va shaxslarning huquq va majburiyatlar to'g'risidagi konvensiyada yozilgan.

Konvensiyaning 6-moddasida kurashuvchi bir tomonning xizmatiga kirish maqsadida jismoniy shaxslarning alohida chegaralardan kesib o'tishi natijasida betaraf davlatning majburiyati paydo bo'lmaydi degan qoida mustahkamlangan. Shu bilan birga betaraf davlat quyidagi holatlarda o'zining betarafligini vaj qilib keltira olmaydilar:

— Agar kurashuvchi tomonga nisbatan dushmanchilik ruhidagi xatti-harakatni amalga oshirsa;

— Agar u kurashuvchi tomon foydasiga harakatlarni amalga oshirsa, ya'ni u ixtiyoriy ravishda urushuvchi tomonlarning birining qurolli kuchlari safiga xizmatga qo'shilsa;

Qurolli nizolarning qonuniy ishtirokchilari haqida gap ketar ekan, shu orada yollanma askarlar va josuslarning bu ishtirokchilar qatoriga kirmasligini ta'kidlab o'tish lozim.

“Yollanma jinoyatchi” tushunchasi ilk bor 1977-yilgi I Qo'shimcha protokolning 47-moddasida tavsiflangan bo'lib, unga ko'ra yo'llanma jinoyatchi:

a) Qurolli nizoda jang olib borish uchun joyda yoki xorijda maxsus yollangan shaxslar;

b) Harbiy harakatlarda amalda ishtirok etuvchi shaxslar;

c) Moddiy mazmuni tegishli davlatning qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kiruvchi kombatantlarga to'lanuvchi haqdan ancha yuqori bo'lgan, moddiy yoki shaxsiy manfaatni qo'lga kiritish maqsadida harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxslar;

d) Urushda ishtirok etayotgan davlat fuqarosi bo'lmagan yoki uning hududida istiqomat qilmaydigan shaxslar;

e) Nizoda ishtirok etayotgan tomonlarning qurolli kuchlarining shaxsiy tarkibiga kirmaydigan shaxslar;

f) Nizolashayotgan davlat bo'lmagan, va davlat tomonidan o'zining qurolli kuchlari saflarida rasmiy majburiyatlarini o'tash uchun yuborilmagan shaxslar;

Yollanma jinoyatchilar kombatant maqomiga ega bo'lmaydi va harbiy asirlar uchun mo'ljallangan rejim ularga nisbatan joriy etilmaydi.

Mojaroda moddiy manfaatdorlik emas, balki boshqa maqsadlarda (siyosiy hammaslaklik, mafkuraning, dinning umumiyligi nuqtayi nazaridan) ishtirok etadigan shaxslar yollanma jinoyatchilardan farq qiladi.

Keyinchalik yollanma jinoyatchilik instituti 1989-yil 4-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 44-sessiyada qabul qilingan Rezolyutsiyada Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va tayyorlashga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyada o'z rivojini topdi [3]. Ushbu konvensiyaga muvofiq yo'llanma jinoyatchi tushunchasi ostida quyidagi shaxslar tushuniladi:

a) Joyda yoki xorijda qo'shma kuch ishlatish harakatlarida, xususan 1) hukumat to'ntaruvi yoki davlatning konstitutsion tuzumiga boshqacha zarar yetkazish yoki 2) Davlatning hududiy yaxlitligiga putur yetkazishda ishtirok etish uchun maxsus yo'llangan shaxslar;

b) Bunday harakatlarda ishtirok etar ekan, katta shaxsiy manfaat olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bunday harakatni amalga oshirishga moddiy mukofotning to'lanishi yoki to'lanishi haqida ahd undaydi;

d) bunday harakatlar qaratilgan qarshi davlatning na fuqarosi va na doimiy istiqomat qiluvchisidir;

e) Davlat tomonidan rasmiy majburiyatini amalga oshirish uchun yuborilmagan;

f) Bunday harakatlar amalga oshirilayotgan davlatning qurolli kuchlarining tarkibiga kirmaydi;

Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan ular sud oldida javob berishi lozim bo'lgan qattiq jazolanishi lozim bo'lgan jinoyatchilar sifatida ko'riladi.

Yollanma jinoyatchilarni jalb qilish bir qator xalqaro konferensiyalarda va BMT BA rezolyutsiyalarida qoralangan. 1974-yilda qabul qilingan "Agressiyani belgilash" to'g'risidagi Bosh Assambleyaning Rezolyutsiyasi boshqa davlatga qarshi qaratilgan harbiy kuch qo'llash aktlarini amalga oshiruvchi nomuntazam yoki yollanma kuchlardan foydalanishni xalqaro huquqbuzarlik deb baholadi [1].

1979-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasida "yollanma jinoyatchilik — bu xalqaro tinchlik va xavfsizligiga tahdidir va, qotillik, qaroqchilik va genotsid kabi, hamma joyda insoniylikka qarshi jinoyat deb hisoblanadi" [2].

Qo'shimcha protokol qoidalari odatiy huquqning normalari sanaladi, shunday ekan ular majburiy xususiyatga egadir. BMT milliy-ozodlik harakatlariga qarshi yo'llanma jinoyatchilardan foydalanishni taqiqlashni tavsiya etgan.

1989-yilgi Konvensiyaning 1977-yildagi I Qo'shimcha protokol hujjatidan farqi shundaki, unda yo'llanma jinoyatchilar toifasiga nafaqat qurolli nizolarda



bevosita ishtirok etuvchi shaxslar, balki qandaydir bir davlatda hukumat to'ntaruvini amalga oshirish, uning konstitutsion tuzumiga zarar yetkazish yoki uning hududiy yaxlitligi va daxlsizligiga putur yetkazishga qaratilgan oldindan rejalashtirilgan kuch ishlatish amallarida ishtirok etish uchun yollangan shaxslarning kiritilishi bo'ldi.

Xalqaro gumanitar huquq hujjatlari normalarini tahlil qilish asosida qilingan xulosa - yollanma shaxslarning jinoyatchi shaxslar sifatida e'tirof etilganligi va ularni o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortish lozimligidir. Bundan tashqari, qurolli nizo jarayonida yollanma shaxslardan foydalanuvchi davlat ham javobgarlikka tortilishi lozim.

BMT Inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi yollanma jinoyatchilardan inson huquqlarini buzish va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish vositasi sifatida foydalanish masalasi bo'yicha ishchi guruhining xulosalariga ko'ra, xususiy harbiy kompaniyalar va ularning xodimlarining faoliyati 1989-yilgi yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va tayyorlashga qarshi kurash to'g'risidagi Xalqaro konvensiyada reglament qilinmaydigan "oq dog"lardir. Xususiy harbiy kompaniyalarning harbiy nizolarga keng miqyosda jalb etilishi Xalqaro gumanitar huquqning tafovut va mutanosiblik kabi asosiy prinsiplarining rioya etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Tafovut prinsipi qurolli nizo ishtirokchilarining ikki guruhga ya'ni, jang olib borayotgan va jang qilmayotganlarga ajralishini nazarda tutadi. Mutanosiblik prinsipi o'ta darajada zarar yetkazishni taqiqlaydi. Har qanday harbiy operatsiya harbiy harakatlarni olib borishning muayyan usul va vositalarni qo'llashni taqiqlovchi Xalqaro gumanitar huquqqa muvofiq kelishi lozim. Yuzaga kelgan vaziyatda harbiy zaruratdan kattaroq ko'lamda ziyon yetkazilmasligi lozim.

BMT sobiq maslahatchisi, Niderlandiyalik parlamentariy, iste'fodagi general-mayor Frank van-Kappen "Gibrid urushi – klassik urush olib borish bilan nomuntazam qurollangan birlashmalardan foydalanishning aralashuvidir. Gibrid urushini olib borayotgan davlat, nodavlat ijrochilar – jangarilar, mahalliy aholi guruhlari, tashkilotlar bilan kelishuv amalga oshiradi, ammo rasman bunday aloqalarning mavjudligi butunlay inkor etiladi. Har qanday davlat quruqlikdagi urush to'g'risidagi Haaga konvensiyasi va Jeneva konvensiyalari, boshqa tomonlar bilan erishilgan kelishuvlarga rioya qilishga majburligi bois, ushbu ijrochilar davlat qilishi ta'qiqlangan barcha ishlarni bajarishlari mumkin. Barcha jirkanch ishni nodavlat birlashmalar zimmasiga yuklash mumkindir [8]". Yollanma jinoyatchilarning qurolli nizoga qo'shilishi gibrid urushi kabi ichki yoki xalqaro keskinlik turida uning faollashuvi indikator bo'lib xizmat qilib, uning tashkilotchilari uchun dushmanning turli frontlari va frontortida bir vaqtning o'zida olib borishga imkon beruvchi nostandart va qo'poruvchilik harakatlaridan foydalanishni osonlashtiradi.

Gibrid urushlari sharoitida yollanma jinoyatchilikning rivoj topishiga sabab bo'lgan yana bir xususiyat yollanma jinoyatchilarni urush olib borayotgan davlatlar emas, jismoniy shaxslar va tashkilotlar yollashi bilan bog'liqdir. Denar[9] yollash sxemalari ko'p jihatdan zamonaviy xususiy harbiy kompaniyalar (ingl. Private military companies XHK) faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qilgan. XHKlardan 1980-1990-yillardan boshlab keng ravishda foydalanish boshlandi. Bunga "sovuq urush"ning yakunlanishi va global tiyib turish tizimining inqirozga uchrashi, Sovet Ittifoqi va bir qator sotsialistik davlatlarning parchalanishi hamda bir qator rejimlar (masalan JARda aparteid) yemirilishi sabab bo'ldi. Yuz bergan hodisalar sharoitida mahalliy nizolar soni ortdi, va o'z navbatida XHK bo'lgan talab ham oshdi. Hozirgi kunda dunyoda yo'nalishning barcha turlari va xususiy kompaniyalarning muayyan turiga taaluqli bo'lgan 800 dan ortiq xususiy harbiy kompaniyalar ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatadi. Ularning faoliyati jahon biznesining bag'oyat daromadli segmenti va yuqori nizoli potensial to'plangan davlat va mintaqalarda muammolarni hal qilishning samarali vositasini o'zida namoyon etadi. Hozirda ularning ixtisoslashuvi haqida gapirish mumkin. Shunday qilib ular orasida strategik rejalashtirish, qurolli kuchlarni isloh qilish, armiya bo'linmalariga mashg'ulot o'tkazish, zobitlar va texnik tarkibni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi harbiy konsalting kompaniyalari (ingl. military consulting companies), qo'shinlarning fronorti ta'minoti va boshqa davlatlarning hududida harbiy obyektlarni qurish, armiya kompyuter tizimi yoki murakkab qurol-yarog' uskunalari tizimiga xizmat ko'rsatadigan harbiy ta'minot kompaniyalari (ingl. military support companies) kabilar, shuningdek, krizis menejmenti, xavflarga baho berish, xavfsizlik bo'yicha konsalting, obyektlarni qo'riqlash, shaxsiy soqchilarni taqdim qilish, minasizlashtirish, armiya va politsiya bo'linmalarini tayyorlash bilan shug'ullanadigan xavfsizlik bo'yicha xususiy kompaniyalar ham mavjuddir. Aden ko'rfazi va dunyoning boshqa mintaqalarida qaroqchilikning faollashuvi sababli xususiy harbiy kompaniyalar faoliyatining qaroqchilik bilan kurashish, kemalarga hamrohlik qilish, qo'lga olingan kema va asirga olingan eki pajlarni qaytarish bo'yicha muzokaralarni olib borish kabilarni o'z ichiga oluvchi dengizga bog'liq yo'nalishi paydo bo'ldi. "Arab bahori" voqealari, Ukrainadagi tanglik yollanma harbiy birlashmalar faoliyatining avj olganini ko'rsatib berdi. Masalan, Ukrainada AQSHning mashhur Greystone Limited kompaniyasining faoliyat ko'rsatayotganligining ma'lum bo'lishi bunga dalildir [8].

BMTning Inson huquqlari bo'yicha mutaxassisleri agar xususiy harbiy kompaniyalarning xodimlari harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etsalar, ularni yollanma jinoyatchilar deb hisoblash lozim deyilar.

XXI asr boshida Xalqaro Qizil Hoch Tashkiloti bilan birgalikda Buyuk Britaniya va Shveysariya hukumati tomonidan xususiy harbiy kompaniyalar

faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish borasida huquqiy tashabbuslar paydo bo'ldi. Ushbu tashabbus Angola, Afg'oniston, Avstraliya, Avstriya, AQSH, Xitoy, Germaniya, Kanada kabi dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu tashabbus avvalo, ularning faoliyatiga ta'qiq qo'yuvchi va jazo chorasi sifatida litsenziyasidan mahrum qilish huquqiga ega xalqaro kotibiyat (xususiylar harbiy kompaniyalar faoliyati ustidan nazorat qilish bo'yicha xalqaro organ)ni ta'asis etishga qaratilgan edi. Shuningdek, XHKlarga litsenziya berish rejimi ustidan xalqaro nazorat o'rnatish, ular faoliyatining nazorati xalqaro organlar tomonidan monitoring etilishi va shunday kompaniyalarga ega davlatlar bilan kelishuvlarni ishlab chiqish kabi maqsadlar ham ko'zlangan edi.

Bugungi kunda mazkur tashabbuslar 2008-yilda "Montryo hujjati" va 2010-yilda "Xususiylar harbiy kompaniyalarning xatti-harakatlari to'g'risida xalqaro kodeks[10]"ning imzolanishi bilan yakunlandi. Buning natijasida yollanmalarni jalb etishning xalqaro-huquqiy asoslarining xalqaro gumanitar huquqi va inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni zich bog'lash va muvofiqlashtirish tufayli yollanmachilik faoliyatini qonuniylashtirishga asos solinish boshlandi. Hozirda yollanmachilikni xalqaro darajada qonuniylashtirishga yo'l ochildi, vaholanki yaqin vaqtlargacha Xalqaro gumanitar huquq yollanmachilikni jinoyatlar safiga kiritar edi.

"Montryo" hujjati"ning asosiy kamchiligi – bu uning deklarativ xarakterga ega ekanligidir. U o'zida faqat kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan xalqaro-huquqiy baza uchun xomaki loyihasini namoyon etganligi bois, uning mavjud holati va undagi qoidalar majburiy emas bo'lib tavsiyaviy xarakterga egadir.

Zamonaviy tadqiqotchilarning orasida kuch ishlatish faqat davlat uchun xos bo'lgan huquq deb hisoblovchilari ham topiladi. Masalan E. Toffler davlat barcha zo'rvonliklarni oldini olish yoki nazorat qilishga urinar ekan, davlat korporatsiyalar va boshqa zamonaviy subyektlar tomonidan kuch ishlatishning oldini oladi. Buning ustiga davlatning kuch ishlatishi qonun darajasiga ko'tariladiki, bu holat kundalik turmushda bevosita jismoniy tajovuzni oldini oladi. Ammo zamonaviy sharoitlarda davlatning kuch ishlatish bo'yicha mustahkam monopoliyasi nodavlat aktorlarning intilishlari tomonidan ta'sirga uchrab bormoqda. D.G. Baluevning fikricha, xususiylar xavfsizlik va harbiy xizmatlarining paydo bo'lishi ilgari davlatlar tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning xususiylashtirilishi bo'ldi. G'arb davlatlari harbiy nizolarda o'zlarining harbiy xizmatchilari orasida yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida xususiylar harbiy kompaniyalar mutaxassislaridan foydalanishadi. G'arb jamiyatining katta yo'qotishlarga tayyor emasligi A. Tokvilning 1835-yilda chiqqan "Amerikada demokratiya" nomli tarixiy-siyosiy traktatida asoslab berilgan edi. Muallif demokratik xalq uchun xos bo'lgan



harbiy ruhning so'nishini, faqat muqarrar urush armiyaning ta'minlanishini taqozo etishini ta'kidlagan. Mazkur tendensiya ham qurolli kuchlarni shartnoma asosida komplektlash ham XX asrning boshida professional armiyadan yollanma otryadlariga o'tilishida namoyon bo'lgan xususiy harbiy kompaniyalarning yaratilishida o'z aksini topgan. AQSH va uning ittifoqchilarining ushbu usul bilan davlatlar qurolli kuchlarining xatti-harakatlari uchun majburiyatlarni nazarda tutuvchi urushning qonun va udumlarini tashkil etadigan xalqaro huquq normalarini aylanib o'tishga urinishida muhim omil hisoblanadi. Xususiy harbiy birlashmalarning agressiya aktlari, davlatlarning ichki ishlariga aralashish, xush kelmaydigan hukumatlarni ag'darib tashlash va shu kabi harakatlarni amalga oshirishda foydalanish urush siyosatning boshqa vositalar bilan davom etishi to'g'risida konsepsiyaning tiklanishidan guvohlik beradi. Mazkur missiyalarning qurolli kuchlardan xususiy harbiy kompaniyalar zimmasiga yuklatilishi davlatlarga bu singari holatlarga taaluqligini inkor etishga imkon beradi. Shunday qilib davlat rasman o'zining qurolli kuch ishlatishga bo'lgan monopol huquqidan voz kechadi [5].

Nazariy jihatdan XHK davlatning tashqi siyosatining harbiy yo'nalishiga xalqaro huquq va mahalliy qonunlarning amal qilishidan immunitet beradi. Harbiy harakatlarni XHK qo'llari bilan olib borishni normativ jihatdan siyosiy nizo emas, balki ikki kompaniya o'rtasida shartnomaga rioya qilish masalasi sifatida namoyish qilish osondir. Tegishli ravishda qayerda korporativ huquq amal qilsa, hech kim, va hatto BMT ham to'liq me'yorda ommaviylik va huquqiy shaffoflikni talab eta olmaydi. Xususiy harbiy kompaniyalarning ichki siyosiy nizolarga jalb etilishi shubhasiz, mamlakatda ichki murosaning erishuvi jarayonida qo'shimcha murakkabliklarni hosil qiladi. Shu bilan birga xususiy harbiy kompaniyalardan foydalanishning asl maqsadlarini unutmazlik ham lozim: har qanday davlatning har qanday harakatlari birinchi navbatda uning ichki elitasi manfaatlarini asosida ro'y berishini ham unutmazlik lozim.

Rus olimi V.S. Kotlyarning shu o'rinda nomuntazam kuchlar bilan bog'liq ravishda gibrud urushi tushunchasining ta'rifi e'tiborlidir. U mazkur tushunchaning zamonaviy davrda qo'llashning asosiy ikki kontekstini belgilab o'tadi. Birinchisi, ushbu tushunchaning "nomuntazam harbiy birlashmalardan foydalanish, maxsus xizmatlar, qo'poruvchilik, ig'vogarlik kabi buzg'unchilik operatsiyalarni olib borish, axborot va moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalar, kiberhujumlar, insonlarning xatti-harakatlariga psixologik ta'sir etishning usul va vositalarining rolining ortishi" bilan bog'laydi. Tushunchadan foydalanishning ikkinchi konteksti "hujum qiluvchi davlatning muntazam qurolli kuchlarining ishtirokisiz, ammo qurbon-davlatning ichida hujumchi-davlatning pozitsiyasiga xayrixoh bo'lgan kuchlarga tayangan holda ko'lamdor

qo'poruvchlik operatsiyasini amalga oshirish bilan bog'liqdir. Bunda maqsad qurbon-davlatning rejimini o'zgartirish yoki siyosatini radikal ravishda o'zgartirish bo'lib, unda muxolifatga yashirin tarzda moddiy va axborot ko'magi ta'minlanadi". Mazkur holat ham zamonaviy davrda tobora muntazam qurolli kuchlardan foydalanish an'anasining o'rnini nomuntazam kuchlar egallayotganligini tasdiqlaydi.

Davlatlar tomonidan zamonaviy davrda muntazam qurolli kuchlar o'rniga nomuntazam va xususiy harbiy birlashmalardan foydalanishga sabab bo'lgan yana bir qator omillar mavjuddir. Ularni shartli ravishda "huquqiy", "harbiy" va "texnikaviy"ga ajratib o'tamiz. Sabablarning birinchi guruhi (huquqiy) bevosita BMT nizomining 2-moddasida mustahkamlab qo'yilgan qurolli tajovuzning davlatlararo ziddiyatlarni hal etishda qo'llashning man etilganligi bilan bog'liqdir. Mazkur imperativ prinsipning kiritilishi natijasida alohida davlatlar tomonidan mazkur ta'qiq doirasidan tashqariga chiqmagan holda tashqi siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga imkon beruvchi kuch ishlatishga asoslanmagan metodlarni faol ravishda izlash boshlandi. Bir qator mutaxassislar bir necha o'n yillar davomida souq urush kechgan xalqaro munosabatlar fonida kuch ishlatishga huquqiy ta'qiq, davlatlarga "gibrid urush"ning alohida elementlarini qo'llashga majbur bo'lishga ko'maklashgan deb hisoblaydilar. Sovet Ittifoqi va AQSHning qurolli kuchlari o'rtasida bevosita harbiy to'qnashuvining ilojisizligi har bir qurolli nizoda kurashuvchi tomonlarga harbiy-siyosiy madad ko'rsatishga rag'batlantirar edi. Sabablarning ikkinchi guruhi (harbiy) global harbiy-zo'ravonlikka asoslangan qarama-qarshilikning ahamiyatining pasayishi faqat xalqaro-huquqdagi ta'qiq sababli emas, balki amalda harbiy samarasiz ekanligidadir. Ko'lamdor xususiyatli qurolli harakatlar bilan birgalikda ko'psonli armiyalardan foydalanish, shuningdek aniq chegaralangan harbiy harakatlar maydonining mavjudligi o'tmishga aylanmoqda. Sabablarning uchinchi guruhini texnik tib belgilashimizga sabab zamonaviy davlatlarning texnik imkoniyatlarining daraja ko'rsatkichining ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Misli ko'rilmagan axborot muhitining globallashuvi va yangi texnologiyalarning vujudga kelishi klassik harbiy-kuchga asoslangan qarama-qarshilikdan ko'ra nisbatan ancha arzonroq va samaraliroq bo'lgan kuchga asoslanmagan o'zaro kurash vositalarining faollashuviga sabab bo'ldi [5].

Gibrid urushlarni olib borishda qo'llaniladigan nomuntazam harbiy birlashmalar turlaridan yana biri "noma'lum snayperlar" bo'lib, ular "rangli inqiloblar" va qurolli nizo ig'vosi yo'li bilan suveren davlatlarga nisbatan tajovuzni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydilar. Mazkur hodisa haqida gapirar ekanmiz, 1993-yil oktyabrda Rossiyada, 1991-yil Vilnyusda, 2008-yilda Janubiy Osetiyada, 2009-yilda Eronda, 2010-yil Qirg'izistonda, 2011-yilda Suriya,

Tunis, Yamanda, 2011-2012-yillarda Liviyada va 2014-yilda Ukrainada namoyishchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga nisbatan amalga oshirilgan snayper qurollardan o'q uzishlar to'g'risidagi faktlar o'rinlidir. Shu orada rossiyalik tadqiqotchi V. Starikov tomonidan mazkur masala bo'yicha qayd etilgan izohlar ahamiyatlidir: “Ommaviy tartibsizliklar bilan kurashda mergandan foydalanishda mantiqning yo'qligini tushunish uchun professional harbiy yoki politsiyachi bo'lish shart emas. Ammo huquqni muhofaza qiluvchilar va namoyishchilar o'rtasidagi qarama-qarshilik hududida zo'ravonlikning eskalatsiyasi uchun bu ideal vositadir. Kurashuvchi ikkala tomon ham yo'qotishlarga yo'l qo'yib, bunda qarshi tomonlarni ayblashadi va o'zaro zo'ravonlik darajasi kuchayadi, qurbonlar soni ortadi. “Haqparvar va mustaqil” OAV esa ularni qayd etib, hamda tegishli izohlar bilan to'ldiradilar va jahon hamjamiyatiga “qonli rejimning jinoiy harakatlari” tog'risida xabar beradilar. Qolgani esa – texnikaning ishi, jumladan harbiy texnikaning ham [7].

Shunday qilib, nomuntazam va xususiy harbiy birlashmalarning asosiy yutuqlari bu ularning operativligi, samaradorligi, professionalligi va rad etib bo'lmas moliyaviy ustunligidir. Aynan mazkur sifatlar sababli davlatlar tobora o'zlarining an'naviy qurolli kuchlaridan ko'ra, ko'proq nomuntazam harbiy birlashmalar xizmatidan foydalanishmoqdalar. Bundan tashqari mavjud xalqaro hujjatlarni tahlil qilish natijasida yollanma kuchlarning faoliyati va maqomini tartibga solishda huquqiy jihatdan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini aniqlashga muvassar bo'ldik. Nomuntazam va xususiy harbiy kompaniyalar gibrid operatsiya tayyorlanayotgan davlatga katta tahdidni tug'dirishi mumkin. Negaki harbiy nizo jarayonida yollanma kuchlarning qaysi tomonga taaluqli ekanligini aniqlash mushkul. Nomuntazam va xususiy harbiy birlashmalar beqarorlik hududlarida davlatning tashqi siyosatidagi maqsadlarini huquqiy to'siqlarsiz amalga oshirishning kafolati, muammolarni tez va samarali hal etish vositasidir. Ko'p hollarda qurolli kuchlarni biror hududga kiritish va u yerda ularni ta'minlab turishdan ko'ra birovlarning qo'llari bilan muayyan vazifani bajargan afzalroqdir. Yana boshqa bir tomondan agarda davlat qandaydir nizo yoki loyihada ishtirokini ma'lum qilishni va jirkanch ishlarga aralashishni istamasa nomuntazam va xususiy harbiy birlashmalar bu ish uchun eng ma'qul vositadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. BMT Bosh Assambleyasining “Agressiyani belgilash to'g'risida”gi Rezolyutsiyasi – URL: [http://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/aggression.shtml](http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/aggression.shtml)

2. BMT Bosh Assambleyasining 14.12.1979 sanasidagi 34/140 sonli Rezolyutsiyasi – URL: <https://undocs.org/ru/A/RES/34/140>

3. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari. O'quv qo'llanma // T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007. B. 288-289.

4. Ortiqov O., Ubaydullayev Sh., To'xtashev I., G'afurov B. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. I-qism. 2-nashr. // T.: "Ilm ziyo" 2007. B. 180

5. Амиров Р.З. К вопросу о монополии государства на применения насилия // Журнал пробелы в Российском законодательстве. 1'2015. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-monopolii-gosudarstva-na-primenenie-nasiliya.pdf>

6. Дополнительный протокол к Женевским конвенциям от 12 августа 1949 года, касающийся защиты жертв международных вооружённых конфликтов (ПРОТОКОЛ I) – URL: <http://lex.uz/docs/2674806>

7. Мирошниченко М.С. Роль частных военных компаний и “неизвестных” снайперов// Журнал Криминология. Вчера, сегодня, завтра. 3 (34), 2014. С. 110. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-chastnyh-voennyh-kompaniy-i-neizvestnyh-snayperov-v-osuschestvlenii-tsvetnyh-revolyuitsiy.pdf>

8. Терновая Л.О. Наемничество в условиях гибридных войн: история и современность // Журнал “Этносоциум и межнациональная культура”. № 6(96) М.: Этносоциум, 2016. С. 115 – URL: <http://ethnosocium.ru/sites/default/files/6-96.pdf/>

9. Rober yoki Bob Denar – fransuz harbiy zobiti va yollanma jinoyatchi, Afrika va Osiyodagi bir qator qurolli nizolarning ishtirokchisi. Fransafrika geosiyosiy loyihasining arbobi. 1978-1989-yillarda Komor orollari prezidenti gvardiyasi qo'mondoni. Tashkiliy jinoiy guruhlarga taaluqligi sababli jazoga hukm qilingan. Yollanma jinoyatchilar qiroli laqabini olgan.

10. 2016-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 70 dan ortiq davlatdagi 592 ta xususiy harbiy kompaniya: xususan NATOning 20 ta a'zosining 367 ta kompaniyasi (68%) imzoladilar va qo'shildilar.